XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

Sherobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi 22-uy. 191400, tel.: (+99876) 322-11-26

2022 - yil 20 - iyun VI-50-126-8-119-K/22 Sherobod tuman hokimligi

Sherobod tumanidagi ayrim geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlarihaqida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 18-apreldagi 08-03021-sonli xati, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli bayoni hamda 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli ekspert xulosalariga asosan Sherobod tumanida 1 ta istirohat bog‘i nomi o‘rganilib chiqilib ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli ekspert xulosasiga asosan Sherobod tumanida 1 ta istirohat bog‘i nomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Panjiyev, N.Maxmadiyorov), Sherobod tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (R.Tilovov),

tuman obodonlashtirish boshqarmasi (S.Boqiyev)lar bilan birgalikda yangi nomlangan istirohat bog‘ining nomi aks ettirilgan peshlavhani 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman statistika bo‘limi (K.Boboqulov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Sherobod tuman filiali (E.Musayev) nomlangan istirohat bog‘ini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi v.b (O.Jumayev) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Panjiyev, N.Maxmadiyorov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (S.Boqiyev)lar mas’ul etib belgilansin.

5. Belgilab qo‘yilsinki nomlangan istirohat bog‘iga peshlavha tayyorlash, o‘rnatish uchun sarflanadigan mablag‘lar qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanadi.

6. Mazkur qaror “Sherobod hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Jo‘rayev), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Tursunov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Hokim **Davlatov Z.**

Xalq deputatlari Sherobod tuman
Kengashining
2022 yil 20 iyundagi
VI-50-126-8-119-K/22-son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumanidagi ayrim geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida taklif

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Istirohat bog'i	Katta hayot mahallasi	Nomsiz	Zahiriddin Muhammad Bobur	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq